


**Oriental Journal of Philology****ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**IMAGERY REPRESENTATION IN KOREAN FOLK PROVERBS*****Iroda Furkatovna Bayankhanova****Acting Associate Professor (PhD)**Head of the Department of Korean Philology**SamSIFL Senior Lecturer**Samarkand, Uzbekistan***ABOUT ARTICLE**

**Key words:** communication, culture of behavior, manners, speech activity, path to the heart, mutual understanding, fear of words, foundation of education 한국어 속담, 중의적 표현, 직접적 표현, 동음어, 다의어, 단어의어. 의사 소통, 치료 문화, 매너, 품위, 연설 활동, 영혼의 길, 상호 이해, 단어 비전, 교육의 기초.

**Received:** 10.11.25**Accepted:** 11.11.25**Published:** 12.11.25

**Abstract:** Proverbs are not only the most significant, but also the most characteristic part of the folklore heritage of any nation. The features of folk history and character, work and life are imprinted or metaphorically encoded in them with the same certainty, ancient life on fossils, with the difference that they remain alive for centuries, as long as the people who created them live, and its language, which made them its part.

“The proverbs included in the paremiological fund of the language are a valuable linguistic heritage of the people, reflecting their customs, traditions and history, and other specific features of the people. In proverbs, as in any other genre of folklore, everything that lives and encounters this or that people over the centuries is reflected. Here is a complete set of ethnographic realities, ranging from tools and ending with outfits, and a comprehensive description of the geographical environment with its landscapes, climate, animals and flora; here are memories of bygone events and outstanding personalities, echoes of ancient religious views and a detailed picture of the modern organization of society.

**KOREYS XALQ MAQOLLARIDA OBRAZ IFODASI*****Iroda Furkatovna Bayonkhanova****(PhD), v.v.b.dotsent**Koreys filologiyasi kafedra mudiri*

SamDChTI

Email: [irodabayonkhanova2208@gmail.com](mailto:irodabayonkhanova2208@gmail.com)

Samarqand, O'zbekiston

## MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** maqol, obraz, metafora, milliy tafakkur, ramz, madaniy konnotatsiya, koreys xalq og'zaki ijodi. Muloqot, muomala madaniyati, xulq-atvor, odob-axloq, nutqiy faoliyat, qalbga yo'l, o'zaro tushunish, so'z ko'rki, tarbiya asosi. 한국어 속담, 중의적 표현, 직접접 표현, 동음어, 다의어, 단어.의사 소통, 치료 문화, 매너, 품위, 연설 활동, 영혼의 길, 상호 이해, 단어 비전, 교육의 기초.

**Annotatsiya:** Maqolada o'zaro munosabat, murojaat qilish jarayonidagi o'zni tutish va fikr almashuvlar muomala madaniyati tushunchasi haqida fikr yuritilgan. Munosabat, murojaat, muloqot, munozara, mubohasa, muhokama, mulohaza singari tushunchalarning barchasi muayyan millat, ya'ni o'zbek va koreysning ziynatiga mos bo'lgan ziynatlar haqida bo'lib, u etik va estetik me'yorlar, qoidalar bilan amalga oshirilishiga ko'p ta'riflar berib o'tilgan. Maqolada inson dilini ovlash, unga mehr berish, samimiy tilaklar izhor etish ilinji sharq adabiyotida sharaflangan, taraflangan. Sababi, dunyoda bir ilm borki, bu adabiyotning bosh mavzusi bo'lib kelgan. Bu insonshunoslikdir. Ushbu ilmning ibtidosi esa inson diliga yo'l izlashdir. Ilmu fan ham, ma'naviy madaniyat va san'at ham shu haqda bosh qotirib kelgan.

## ВЫРАЖЕНИЕ ОБРАЗОВ В КОРЕЙСКИХ НАРОДНЫХ ПОСЛОВИЦАХ

*Ирода Фуркатовна Байонханова*

(PhD), и.о. доцент

Заведующий кафедрой Корейской филологии

СамГИИЯ

Самарканд, Узбекистан

## О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** коммуникация, культура поведения, манеры поведения, речевая деятельность, путь к сердцу, взаимопонимание, боязнь слова, основа воспитания, 한국어 속담, 중의적 표현, 직접접 표현, 동음어, 다의어, 단어.의사 소통, 치료 문화, 매너, 품위, 연설 활동, 영혼의 길, 상호 이해, 단어 비전, 교육의 기초.

**Аннотация:** Пословицы являются не только самой значительной, но и самой характерной частью фольклорного наследия любого народа. Черты народной истории и характера, труда и быта запечатлены или метафорически зашифрованы в них с такой же достоверностью, древней жизни на окаменелости с той разницей, что остаются живыми на протяжении веков, пока живёт народ, их создавший, и его язык, сделавший их своей частью.

«Пословицы, входящие в паремииологический фонд языка – это ценное лингвистическое наследие народа, отражающее его обычаи, традиции и историю, и прочие специфические

особенности народа. В пословицах, как и в любом другом жанре фольклора, находит свое отражение все, чем живет и с чем сталкивается тот или иной народ на протяжении веков. Тут и полный набор этнографических реалий, начиная от орудий труда и кончая нарядами, и всесторонняя характеристика географической среды с ее ландшафтами, климатом, животными и растительным миром; здесь и воспоминания о давно минувших событиях и выдающихся личностях, отзвуки древнейших религиозных воззрений и подробная картина современной организации общества».

**Kirish.** Har bir xalqning maqollari — bu uning hayotiy tajribasidan, milliy tafakkuridan va badiiy dunyoqarashidan kelib chiqqan donolik durdonalaridir. Koreys xalq maqollari (한국 속담) xalqning axloqiy, ijtimoiy, falsafiy qarashlarini ifodalovchi badiiy shakl sifatida qadimdan xalq og‘zaki ijodining muhim qismini tashkil etadi. Maqollardagi obrazlilik esa tildagi ma’nolarni boyitadi, ularni chuqurroq tushunishga imkon yaratadi. Koreys tilidagi ko‘plab maqollar metaforik, allegorik va ramziy obrazlar orqali ifoda etiladi.

Har bir xalq maqollari o‘zining tarixiy, ijtimoiy va madaniy tajribasini aks ettiruvchi milliy tafakkur mahsulidir. Shu bois maqollarni boshqa tilga tarjima qilish nafaqat lingvistik, balki madaniy tafovutlarni ham hisobga oluvchi murakkab jarayondir. Koreys va o‘zbek tillaridagi maqollar turmush tarzi, qadriyatlar va mentalitet jihatidan o‘xshash bo‘lsa-da, ularning ifoda shakli, metaforik tuzilishi va pragmatik maqsadi ko‘pincha farq qiladi. Maqollarni tarjima qilishda asosiy vazifa — ma’noni, obrazni va milliy ruhni saqlagan holda ekvivalent ifodani topishdir. Koreys tilshunosligida maqollarning obrazli tabiatini o‘rganish yuzasidan bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Jumladan, Choi Seung-ho (최승호, 2004), Kim Yong-hee (김용희, 2012), Lee Min-jung (이민정, 2019) kabi olimlar koreys maqollarida hayvon, tabiat va inson obrazlarining ramziy ma’nosini tahlil qilganlar.

Maqollarni tarjima qilish masalasi ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. V. Komissarov (1990), P. Newmark (1988), A. K. Halliday (2004) asarlarida frazeologik birliklarni tarjima qilishda madaniy ekvivalentlik masalasi chuqur tahlil qilingan. Koreys tadqiqotchilari ichida Kim Yong-hee (김용희, 2012), Lee Hyun-joo (이현주, 2015) maqollarning tarjimasini jarayonida kontekstual ma’no va madaniy moslikni muhim deb biladi.

O‘zbek olimlari ichida esa To‘xliiev B., Karimov N., Rasulov S. kabi tadqiqotchilar maqollarni semantik va lingvomadaniy nuqtayi nazardan o‘rganib, ularning xalq dunyoqarashidagi obrazli ifoda shakli ekanini ta’kidlaganlar.

Koreys maqollarida obrazlilik tushunchasi. Koreys xalq maqollarida obrazlar ko‘pincha metafora, taqqoslash va ramz orqali yaratiladi. Ular insonning fe‘l-atvorini, jamiyatdagi o‘rnini yoki hayotiy tajribalarni ifodalashda vosita vazifasini bajaradi.

Misol uchun:

“호랑이 굴에 가야 호랑이 새끼를 잡는다”

(“Yo‘lbars iniga kirmasang, bolasini tutolmaysan.”)

Bu maqolda yo‘lbars obrazi xavf va jasorat ramzi sifatida ishlatiladi. Maqolning pragmatik ma’nosi — muvaffaqiyatga erishish uchun tavakkal qilish kerakligidir.

“가는 말이 고와야 오는 말이 곱다”

(“Yaxshi so‘z aytsang, yaxshi so‘z eshitasan.”)

Bu maqolda so‘z obrazi insoniy munosabat va odob timsolidir.

“빈 수레가 요란하다”

(“Bo‘sh arava shovqin qiladi.”)

Bu maqol obrazli tarzda bo‘sh, lekin ko‘p gapiradigan odamlarni tanqid qiladi.

Obrazli ifoda bu yerda madaniy stereotip va ijtimoiy bahoni o‘zida mujassam etgan.

Koreys xalq maqollaridagi obrazlar xalqning badiiy tafakkurini, axloqiy qadriyatlarini va milliy mentalitetini ifoda etuvchi ramziy vositalardir. Ular orqali inson va jamiyat haqidagi donolik, ogohlantirish va maslahatlar obrazli tilda yetkaziladi.

Obrazlilik maqolning ta’sirchanligini oshiradi, uni pragmatik jihatdan samarali nutq birligiga aylantiradi. O‘zbek va koreys maqollarining obrazli tahlili esa turli madaniyatlar o‘rtasidagi o‘xshashlik va o‘ziga xoslikni yanada chuqurroq ochib beradi.

Xalq tajribasi ma’naviy qadriyatlarning yaratilishida favqulodda muhim rol o‘ynaydi. “Insonlarda xotiralar tufayli tajriba paydo bo‘ladi: ayni bir narsa, predmet haqidagi bir qator xotira, nihoyat, bir tajriba ahamiyatiga ega. Tajriba esa fan va san’at bilan deyarli bir xildir. Fan va san’at, gapga esa insonlar tajriba tufayli erishadilar. Chunki, V.Pol aytganidek, tajriba san’atni yaratgan va to‘g‘ri aytgan, tajribasizlik – hodisa”

N. Barlining tasdig‘iga ko‘ra, “maqolni unga o‘xshagan boshqa turdosh shakllar bilan munosabat kompleksidan alohida ko‘rib chiqish mumkin emas”. Har bir xalqning maqollar zaxirasi o‘ziga xosdir. O‘zbek xalq maqollari o‘zbek xalqi donishmandligining hosilasi hisoblanadi. O‘zbek maqollari tasnifi masalasi bugungi kunda o‘z yechimini kutayotgan mavzu hisoblanadi. Ikki jildlik “O‘zbek xalq maqollari” akademik to‘plamida maqollar alifbo tartibida

berilgan. “Alfavitli tasnif” to‘plamda “Balandparvoz so‘zlar” deb qabul qilingan. Tuzuvchilar Sh.Shomaqsudov va Sh.Shoraxmedovlar o‘zlarining “Ma’nolar maxzani” to‘plamida ham maqollarni alifbo tartibida joylashtirganlar. To‘plam 20 ming maqolni o‘z ichiga oladi. Unda maqollarning etimologiyasi va muqobillari keltirilgan.

Boshqa to‘plamlarda, asosan, maqollarning predmetli-mavzuli tasnifidan foydalanilgan. Masalan, “O‘zbek xalq maqollari” to‘plamida 30 predmetli mavzu guruhi taqdim etilgan:

- 1) Vatan va vatanparvarlik haqida;
- 2) mehnat va mehnatsevarlik haqida;
- 3) kollektivism;
- 4) do‘stlik va kelishmovchilik haqida;
- 5) fan va san’at haqida;
- 6) donolik va johillik haqida;
- 7) mardlik va insoniylik haqida;
- 8) jasorat va qo‘rqoqlik haqida;
- 9) hushyorlik va ehtiyotkorlik haqida;
- 10) oila va yaqinlar haqida;
- 11) sevgi va sadoqat haqida;
- 12) kattalarni e’zoz qilish haqida;
- 13) kamtarinlik va tarbiya haqida;
- 14) qadr-qimmat haqida;
- 15) mehmon va mehmondorchilik haqida;
- 16) yaxshi so‘z va ezgulik haqida;
- 17) rostgo‘ylik va samimiylik haqida;
- 18) ehtiyotkorlik va uquvsizlik haqida;
- 19) tejamkorlik haqida;
- 20) sabr qanoat, matonat haqida;
- 21) soflik, poklik haqida;
- 22) ishonch va umidsizlik haqida;
- 23) maqtanchoqlik va kibr haqida;
- 24) ochko‘zlik haqida;
- 25) hayvonot haqida;
- 26) nasihat haqida;
- 27) majoziy maqollar;
- 28) pand-nasihat moqollari;

29) kambag'allik va muhtojlik: tarixiy o'tmish haqidagi maqollar;

30) haqsizlikka qarshi yo'naltirilgan maqollar;

Ko'rib o'tganimizdek, maqollar bir necha mavzuga bag'ishlangan bo'lib, yaxshilikni ifodalovchi maqollar ham keltirib o'tilgan. Ota-bobolarimizning "Yaxshilik qil, suvga sol, baliq bilur; baliq bilmasa Xoliq bilur", "O'ng qo'ling bersin, chap qo'ling bilmasin" kabi fikrlari mustahkam tarbiya sifatida avlodlarga meros bo'lib qolgan

Maqollar folkloristik nuqtayi nazaridan folklorshunos olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xalq og'zaki ijodi bo'lgan maqollar to'planib, tasniflangan va kitob holda nashr qilingan. Maqollarning o'rganilishi o'zbek millatining boy tarixini ko'rsatish bilan birga milliy madaniyatini ham o'zida namoyon qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 최승호 (2004). 한국 속담 연구. 서울: 고려대학교출판부.
2. 김용희 (2012). 한국인의 언어문화. 서울: 학문사.
3. 이민정 (2019). 속담의 상징과 의미. 서울: 세종출판.
4. To'xliiev, B. (2002). O'zbek xalq maqollari va ularning tahlili. Toshkent: Fan.
5. Базарова, Ш. (2024). Судьба женщины в рассказах Айдын Собировой. Зарубежная лингвистика и лингводидактика, 2(2/S), 24-28.
6. Rasulov, S. (2020). Maqollar va milliy mentalitet. Samarqand: Registon.
7. Фуркатовна, Б.И. (2021). Дискурсивно-прагматические особенности корейских и узбекских статей о концепте "/человек" 사람. Международный журнал менеджмента, 12 (2).
8. Баенханова, И. (2019). Паремияларнинг турли тизимдаги тилларда умумий хусусиятлари. Иностранная филология: язык, литература, образование, (2 (71)), 64-66.
9. Баёнханова, И. Ф. (2021). Koreys tilida somatik frazeologizmlarning ifoda ma'nosiga ko'ra turlari. международный журнал искусство слова, 4(2).
10. Bayonkhanova Iroda Furkatovna Samarkand State Institute of Foreign Languages ASEAN Journal on Science & Technology for Development Vol 39, No 4, 2022, 23-29 23 DOI 10.5281/zenodo.6457490 © The Author(s) 2022. This article is distributed under a Creative Commons Attribution-ShareAlike 4.0 International license. <http://ajstfd.com/> Discursive-pragmatic characteristics of articles expressing the etiquette of communication (on the example of korean and uzbek languages)
11. Баёнханова Ирода Фуркатовна Дискурсивно-прагматические характеристики статей, выражающих этикет общения (на примере корейского и узбекского языков) // Идсеп. 2023. №1. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/discursive-pragmatic-characteristics-of->  
<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp>

articles-expressing-the-etiquette-of-communication-on-the-example-of-korean-and-uzbek (дата обращения: 30.11.2024).

12. Shuxratovna, B. S. (2024). O 'zbek va koreys maqollarida genderlik masalasi. *Innovation: The journal of Social Sciences and Researches*, 2(2), 83-86.

13. Баёнханова, Ирода Фуркатовна Ҳикмат арбобларининг турли тилдаги мулоқот одобини ифодаловчи мақоллар ҳақидаги фикрлари (ўзбек ва корейс тиллари МИСОЛИДА). // *ORIENSS*. 2022. № Special Issue 24. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/ikmat-arboblarining-turli-tildagi-mulo-ot-odobini-ifodalovchi-ma-ollar-a-idagi-fikrlari-zbek-va-koreys-tillari-misolida> (дата обращения: 08.02.2025).